



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

SHAXS EHTIYOJLARI MUAMMOSINING PSIXOLOGIK
ASOSLARI

Karimov Islom Jamshid o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti magistranti
islomk627@gmail.com

Ehtiyoj tushunchasining mohiyati, uning tizimlari haqida falsafiy, psixologik va sotsiologik adabiyotlarda turli qarashlar mavjud. Ilmiy e'tirof etilgan nashrlarda ehtiyoj deganda ya'ni keng ma'noda tirik organizmni, inson shaxsini, bir butun jamiyatni va ijtimoiy guruhning hayotiy faoliyatini ta'minlaydigan narsalarga zarurat va uni qondirishga intilish nazarda tutilgan. Ehtiyoj keng ma'noda har qanday faoliyat sohibi sub'ektning tashqi olam bilan o'zaro munosabatlarining eng muhim bo'g'inidir. Bu munosabatlar tizimi o'z mohiyatiga ko'ra sub'ektning o'zi yashash uchun zarur bo'lgan tashqi sharoitlarga bog'liqligini, tashqi holatlarga nisbatan moslashuvini anglatadi. Ular subyektning eng muhim xususiyatlaridan, ichki tabiatidan kelib chiqadi. Shu sababli ehtiyojni har qanday hayotiy faoliyatning sababchisi deyish mumkin. Ehtiyoj barcha sub'ektlarning tabiati va jamiyat bilan uzviy bog'lab turuvchi va harakatga keltiruvchi kuch deb bilsak bo'ladi. Ehtiyoj individ xatti-harakati va fe'l-atvorining manbai va uning konkret yashash sharoitiga bog'liqligini ifodalovchi harakatdir. Bu holat o'z-o'zidan emas, balki organizmdan tashqaridagi narsa-hodisalar tufayli o'zgaradi. Organizmning o'z holatini va manfaatini faxmlashi har bir ehtiyojga xos sezgi, his (ochlik, istash, orzu, tashnalik, mayl, xavas va hokozolar) orqali yuzaga keladi.

Ehtiyojlar jonli mavjudotlar, jumladan odamlarning xulqi va ruhiy faoliyati bilan uzviy bog'langandir. Tirik organizmga xos ichki faollik xulq-atvorning bosh belgisi ekanligi to'g'risidagi qarashni rus olimi I.P.Pavlov ilgari surgan. I.P.Pavlov "maqsadli refleks" degan yangi tushunchani fiziologiyaga kiritib, u orqali tirik organism xulq-atvorining harakatlantiruvchi kuchini, uning faollik manbaini ko'rsatishga harakat qiladi. "Maqsadli reflex muhim hayotiy ahamiyatga ega bo'lib, u har birimizning hayotiy energiyamizning asosiy shaklidir. Butun hayot, uning takomili, butun madaniyat maqsadli reflex orqali, muayyan maqsadlarni o'z oldiga qo'ygan kishilar faoliyati orqaligina amalga oshiriladi"²⁴. Xulq-atvorning faolligi muayyan ehtiyojlar mavjudligini ifodalaydi. Ehtiyoj tegishli tarzda organism his etadigan zarurat bo'lib, uning mohiyatini xulq-atvorga bog'lab to'g'ri tushinish mumkin. Har qanday ehtiyoj organizmni o'ziga zarur narsani o'zlashtirishga da'vat etadi, uning muhim-nomuhimligi shu yo'l asosida aniqlanadi.

Inson ehtiyojlari turli fan va faoliyat sohalarda o'rganish predmeti hisoblanadi. Ehtiyoj – atamasi ko'plab fan, jumladan, psixologiya, falsafa hamda ijtimoiy fanlar tomonidan ko'proq o'rganiladi. Shuning uchun ehtiyoj atamasi talqini keskin farq qilishi mumkin. Ehtiyoj – bu insonning biror narsaga (odamlar, narsalar, sotsializatsiya jarayonlari) bo'lgan

²⁴ Pavlov I.P., Полн.собр.соч. в 3-х тт. -М.: 1951. – С201





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

ehtiyoj, odamlar ularsiz o'zini qulay va xavfsiz his qilmaydi. Oddiy qilib aytganimizda, bu insonning biror narsaga bo'lgan xohish-istagidir. Boshqa bir yondashuvga ko'ra, ehtiyoj – bu shaxs va vaziyatga qarab o'zgarib turadigan ma'lum obyektlar yoki narsalarning yetishmasligi holatida ifodalangan ichki psixologik va funksional insonning bir hissi deya qaraladi.

Ehtiyoj doimo o'zgarib turadi. Bu nafaqat insonning butun umri davomida har xil ustuvorliklarga ega bo'lishi, balki ehtiyojlarni inson xarakteri, dunyoqarashi, hayotiy tamoyillari va qadriyatlariga bog'liqligi bilan xarakterlanadi. Ular dinamik. Bu shuni anglatadiki, ular inson rivojlanishi bilan yaxshilanishi mumkin; ular shaxsning hayot tarziga bog'liq. Bu:

Birinchidan, har bir shaxs ijtimoiylashuv orqali shakllanadi va rivojlanadi. Inson va uning ehtiyojlari uning qiziqishlari, atrof-muhitiga, va faoliyatiga bog'liq.

Ikkinchidan, egallagan kasb, malaka va ko'nikmalari ham shaxsning intilishlarini o'zgartiradi.

D.A.Leontivning ta'kidlashicha, agar inson ehtiyojlari oraqli dunyo bilan bo'lgan munosabatlarini “yolg'iz boshiga” his qilsa, unda qadriyatlar orqali u ijtimoiy butunlikka mansubligini xis qiladi. Ehtiyojlarda inson har doim yolg'iz bo'lsa, qadriyatlarda aksincha, u har doim yolg'iz emasligini his qiladi. Ehtiyojlar o'ziga, o'z muammolariga va ehtiyojlariga e'tibor qaratadi. Qadriyatlar esa uni tashqi olamga, jamiyatga, boshqalarga, madaniyatga va boshqalarga yo'naltiradi. V.Frankl insonni ma'naviy tabiatini o'rganib, ehtiyojlar bizni tashqi olamdan itarishini, qadriyatlar esa jamiyatga jalb qilishini aytib o'tadi. Agar ehtiyojlar shaxsni istalgan holatga yo'naltirsa, qadriyatlar istalgan yo'nalishga yo'naltiradi. Inson ehtiyojlarni sub'ektiv tarzda o'z ichida mavjud bo'lgan va uni tashqariga majburlayotgan narsa sifatida qabul qilsa, qadriyatlar esa tashqi narsa sifatida, dunyoga oid narsa sifatida qabul qildiradi. Shuning uchun inson o'z ehtiyojlarini tuzatishi va qandaydir tarzda o'zgartirishga moyil emas, ularni qabul qilish yoki rad etishi mumkin.

Maqsad qo'yilgan shaxsda u yoki bu ehtiyojlar vujudga keladi va ularning tabiati, yo'nalishi va zaruratiga bog'liq holda xulq-atvor motivlari vujudga keladi. Bu borada Rus olimi R.Nemov²⁵ insondagi motivatsion sohani, har qanday shaxsdagi ehtiyojlarni ikki guruhga bo'lish mumkin deya ta'kidlagan:

- Biologik ehtiyojlar – bu fiziologik (tashnalik, ochlik, uyqu) jinsiy va moslashuv ehtiyoji.
- Ijtimoiy ehtiyoj – bu estetik va axloqiy-ma'naviy, mehnat qilish, bilish ehtiyojlariga bo'lish mumkin.

Ehtiyojlarni biologik va ijtimoiy turlariga bo'lganimiz bilan shu narsani unutmasligimiz kerak-ki, shaxsdagi har qanday ehtiyojlar ham ijtimoiylashgan bo'ladi, ya'ni ular usha jamiyat va muhitdagi qadriyatlar, madaniy normalar va insonlararo munosabatlar xarakteriga bog'liqdir.

²⁵ Р.С.Немов, Психология. Москва. 2003. 688-с.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Yana bir psixolog olimlardan biri A.Maslou ehtiyojlar bo'yicha olib brogan ishlari xulosasida ehtiyojlar ierarxiyasini ishlab chiqadi. Bunda:

1. Fiziologik ehtiyojlarr – ochlik, chanqash, jinsiy mayllar va boshqalar;
2. Xavfsizlikka bo'lgan ehtiyoj – o'zini xavfsiz his qilish, tajovuzdan qutilish va boshqalar;
3. Muloqatga, guruhga a'zo bo'lishga ehtiyoj – ijtimoiy munosabatga kirishish, kishilar bilan munosabat va ular tomonidan qabul qilinish;
4. Hurmatga bo'lgan ehtiyoj – bilimlilik, muvaffaqiyatga erishish, obro';
5. O'zligini faollashtirish (komillik) – o'z maqsadlari, qobiliyatlari va o'z shaxsini rivojlantirish;

Inson ehtiyojlari bu shaxsning hayot faoliyatini ta'minlash va uni yanada takomillashtirishga qaratilgan ichki kuch, rag'bat va talablar majmuasi. Insoniyat tarixi davomida ehtiyojlar shakli, mazmuni va darajasi muntazam ravishda o'zgarib brogan. Avval asosiy biologik ehtiyojlar – ozuqa, suv, boshpanadan iborat bo'lgan bo'lsa, vaqt o'tishi jarayonida ijtimoiy, madaniy, ma'naviy va shaxs rivojlanishiga doir ehtiyojlar vujudga keldi. Bu jarayonda insonning jamiyatda tutgan o'rni, bilimi va turmush tarsi bilan bog'liq²⁶.

Abraxam Maslou – “Motivation and Personality” (1954) asarida inson har bir yuqori bosqichga o'tish uchun pastki ehtiyojlar qondirilishi kerakligi keltirilgan.

Kleyton Olderfer “Existence, Relatedness and Growth” (1969) asarida Maslou modelini qaytadan tahlil qilib, inson ehtiyojlari parallel rivojlanishini ta'riflaydi.

Devid Mak Kelland “The Achiveving Society” (1961) asarida inson faoliyatidagi 3 asosiy ehtiyojini ta'riflaydi: bog'liqlik, yutuq va hokimiyatga intilish.

Karl Rodjers ham “On Becoming a Person” (1961) nomli asarida shaxsning shaxsiy rivojlanishi va o'zini ro'yobga chiqarish ehtiyojiga e'tibor qaratgan.


O'zbek mualliflaridan Yuldashev. A, Mirzayev Q “Psixologiya” darsligida shaxs rivojlanishi va ehtiyojlarini psixik asoslari yoritilgan²⁷. Ehtiyojlar shaxsning ontogenizida vujudga kelib, to umri oxirigacha rivojlanib, o'zgarib, takomillashib boradi. Jamiyatda ehtiyojlar bir-biridan mohiyati, shakli jihatidan farqli bo'lganidek, yosh davrlarida ham xuddi shu mezonlar bo'yicha o'zaro farqlanadi.

Inson ehtiyojlari shaxsning hayotiy faoliyati, ijtimoiy munosabatlari va ruhiy holatining asosiy harakatlantiruvchi omillaridan biri. Ularning rivojlanishi ilmiy-texnikaviy yutuqlar, ta'lim, madaniyat, jamiyat taraqqiyoti va axloqiy qadriyatlar bilan uzviy bog'liq²⁸. Hozirgi kunda ehtiyojlar fiziologik, xavfsizlik kabi asosiy omillar bilan cheklanib qolmasdan, balki insonning o'zini anglashi, ijtimoiy ta'sir va shaxs rivojlanishi kabi yuqori ehtiyojlar ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu inson resurslarini samarali boshqarish, ta'lim-tarbiya

²⁶ Sh.Muratova. Inson ehtiyojlarining rivojlanish xususiyatlari psixologiyasi. Maqola. 2025

²⁷ Sh.Muratova. Inson ehtiyojlarining rivojlanish xususiyatlari psixologiyasi. Maqola. 2025

²⁸ Н.Г.Ничкало, Г.Н.Филанова, О.В.Суходольской-Кулешовой. Современное образование как открытая система. Москва. 2012





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

jarayonini takomillashtirish va shaxsni har tomonlama rivojlantirishda ham muhim o‘rin tutadi²⁹.

Insonlarning ehtiyojini rivojlanishini teran o‘rganish – psixologiya, inson resurslari, sotsiologiya, pedagogika, ijtimoiy fanlar va boshqa fanlar uchun o‘rganish dolzarbligini saqlab qolgan. Insonning barkamollikka intilishidagi imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish orzusi ehtiyojlar rivojlanishi uchun harakatlantiruvchi kuchga aynalib bormoqda.

Zamonaviy shaxs ehtiyojlarining shakllanishida ta‘lim-tarbiyaning o‘rni ko‘p qirrali. Ehtiyojlarning aksariyat hollarida ehtiros, his-tuyg‘u, sub‘ektiv ichki kechinma tarzida namoyon bo‘lishi barchaga ma‘lum. Chunki sub‘ekt ular va ularni amalga oshirish vositalarini anglamaydi va tushunmaydi. Shaxs shakllanishi jarayonida zamonaviy jamiyat a‘zolarining har birida paydo bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojlarni aniq holda tushunishlariga, ehtiyojlarni emotsional darajadan ratsional darajaga “o‘tkazilishiga” erishish zarur, chunki emotsional darajada ba‘zi ehtiyojlarning ahamiyati bo‘rttirib yuborilishi va boshqalarining ahamiyatiga esa aksincha, yetarli baho berilmasdan qolib ketishi, jamiyat uchun ahamiyatga ega bo‘lgan narsalar shaxsning niyatlari, istaklari harakatga keltiruvchi stimullar orasida yetarlicha to‘liq aks etmasligi mumkindir.


Shaxsning ijtimoiy-psixologik zaruriyatni anglashi ushbu zaruriyatning real ehtiyojga aylanishi uchun jiddiy shartdir. Shaxs xulq-atvorining ideallari va amaliy me‘yorlarini shakllantirib, uni u yoki bu ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan maqsadlarga yo‘naltiradi. Rivojlangan jamiyat tendensiyalariga ko‘ra tamaki chekuvchi insonlar orasida o‘pka saratoniga chalingan shaxslar soni chekmaydiganlarga qaraganda jiddiy ravishda ko‘p ekanligi haqidagi ma‘lumot tamaki chekmaydiganlar va chekadiganlarda turlicha ta‘sir qilgan. Chunki ular uchun bunday ma‘lumot yo‘qimisiz bo‘lib, u xavotir keltirib chiqaradi, ma‘lum talaofatlar bilan bog‘liq tamaki chekishdan voz kechish zaruriyatiga yani anglanilgan ehtiyoj orqali vujudga keladi.

Neofredizm vakillaridan biri Karen Xorni (1885-1952) fikricha bolalik ikki ehtiyoj bilan tavsiflanadi: qoniqish va xavfsizlikka bo‘lgan ehtiyoj³⁰. Qoniqish barcha biologik ehtiyojlarni qamrab oladi: oziq-ovqat, uyqu va hakovzolar. K.Xorni jismoniy omon qolish ehtiyojlarini qondirishga ahamiyat bergan bo‘lsada, u ularning shaxsiyat shakllanishida katta rol o‘ynashiga ishon bildirmaydi.

Xavfsizlikka bo‘lgan ehtiyoj bolaning rivojlanishida katta o‘rin tutadi. Bunday holda, asosiy motiv sevish, orzu qilish va xavf yoki dushman dunyodan himoyalanişdir. K.Xorni bolaning xavfsizlikka bo‘lgan ehtiyojini qondirish uchun ota-onasiga to‘liq bog‘liq deb ishonadi. Agar ota-ona bolaga haqiqiy sevgi va iliqlik ko‘rsatsa, unda xavfsizlikka bo‘lgan ehtiyoj qondiriladi. Bunda sog‘lom shaxs shakllanishi ehtimoli yuqori. Aksincha, agar ota-ona xatti-harakati xavfsizlikka bo‘lgan ehtiyojni qondirishga xalaqit bersa, shaxsning patologik rivojlanish ehtimoli kattadir. Bunda ota-onalarning xatti-harakatlaridagi ko‘p

²⁹ Sh.Muratova. Inson ehtiyojlarining rivojlanish xususiyatlari psixologiyasi. Maqola. 2025

³⁰ K.Xorni. “Neurosis and Human Growth. New-York. 1950. 391 b.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

narsalar bolaning xavsizlikka bo'lgan ehtiyojlarini buzishi mumkin: beqaror xatti-harakatlar, masxara qilish, buzulgan va'dalar va hakoza.

E.Fromm (1900-1980) fikricha noyob ekzistensial ehtiyojlar inson tabiatiga xos. Olim fikricha, erkinlikka intilish va xavsizlikka intilish o'rtasidagi ziddiyat odamlar hayotidagi eng kuchli motivatsion kuchdir. Erkinlikning dixotomiyasi – xavsizlik, ekzistensial ehtiyojlar tufayli inson tabiatining universal va muqarrar haqiqatidir. E.Fromm insonning beshta ekzistensial ehtiyojlarini aniqlaydi. Bular:

Ulanishlarga bo'lgan ehtiyoj – kimga tabiatdan ajralganlik va begonalashish tuyg'usini yengish uchun odamlar kimgadir g'amg'o'rlik qilish, ishtirok etish va kimgadir javobgar bo'lishi kerak. Aggar aloqalarni o'rnatish zarurati qondirilmasa, shaxs narsisistik bo'lib qoladi: ular faqat o'zining xudbin manfaatlarini himoya qiladi va boshqalarga ishonishmaydi.

Yengish ehtiyoji – barcha odamlar o'z hayotlarini faol va ijodiy yarativchisi bo'lishlari uchun passiv hayvon tabiatini yengishi kerak. Ijodkorlik va ijodning barcha turlari odamlarga o'z mavjudligining tasodifiyligi va passivligidan ustun turishiga vas hu orqali erkinlik va o'z-o'zini qadrlash tuyg'usiga erishish uchun imkon beradi. Bu hayotiy ehtiyojni qondira olmaslik buzg'unchiliklarning asosiy sababidir.

Ildizlarga ehtiyoj – bu ehtiyoj tug'ilishdan boshlab, ona bilan biologik aloqalar buzulganda paydo bo'ladi. Bolalikning oxiriga kelib, har bir inson xavsizlikdan voz kichadi, ota-onaga qaromog'i bilan ta'minlanadi. Ota-onaga, uyi yoki jamiyati bilan simbiotik munosabatlarni ildizlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish usuli sifatida qaraydiganlar o'zlarining yaxlitligi va erkinligini his qila olmaydilar.

Identifikatsiyaga bo'lgan ehtiyoj – bunda E.Fromm barcha odamlar o'zlari bilan o'ziga xoslik uchun ichki ehtiyojni boshdan kechiradilar deb hisoblagan. Boshqacha aytganda har bir inson o'z-o'zini bilishi, o'z individualligini anglashi kerak. O'zining individualligini aniq bilgan odamlar o'zlarini boshqalarning doimiy ko'rsatmalariga amal qiladigan emas, balki o'z hayotining ustalari, egalari sifatida qabul qiladi. Birovning xattti-harakatidan nusxa ko'chirish, konkormizm, odamga o'zining haqiqiy o'zini his qilishiga imkon bermaydi.

E'tiqod tizimi va sodiqlik zarurati boshqacha aytganda dunyoqarashga bo'lgan ehtiyoj. E.Fromning ta'kidlashicha, odamlar dunyoning murakkabligini tushuntirish uchun barqaror va doimiy ruhiy yordamga muhtoj. Bu orientatsiya tizimi odamlarga voqelikni idrok etish va anglashga imkon beruvchi e'tiqodlar yig'indisi, ularsiz insonlar maqsadli harakat qila olishmaydi.

Inson ehtiyojlarini iqtisodiy va siyosiy kontekstda ko'rib chiqqan E.Fromm bu ehtiyojlar ifodalanishi va qondirilishi shaxs yashaydigan ijtimoiy sharoitlar turiga bog'liqligini ta'kidlagan. Aslini olganda, ma'lum bir jamiyat tomonidan odamlarga taqdim etiladigan ekzistensial ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlari ularning shaxsiy tuzilishini E.Fromm "asosiy xarakter yo'nalishlari" deb atagan.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Jamiyat ehtiyojlari muammosi K.Marks va F.Engels tomonidan faol ishlab chiqilgan va ular jamiyatda bir qancha fundamental ehtiyojlar borligini, ularsiz u muqarrar ravishda yo‘q bo‘lib ketishini aytganlar. Bularga moddiy ne‘matlar, odamlarga bo‘lgan ehtiyoj, ma‘naviy qadriyatlarga bo‘lgan ehtiyoj, boshqaruv va tashkilotga bo‘lgan ehtiyojlar kiradi. Bu ehtiyojlarga ko‘ra jamiyat rivojlanadi va yuksaladi.

L.I.Bojovich, A.G.Kovalyov va S.L.Rubinshteynlar ehtiyojni motiv sifatida o‘rganishgan. Motivga bo‘lgan ehtiyojni qabul qilish, birinchi navbatda, insonning faolligini ko‘p jihatdan tushuntirilganli sababli vujudga kelgan.

Inson ehtiyojlarini shakllantirish va rivojlantirishda ishlab chiqarish moddiy faoliyatining hal qiluvchi rolini ta’kidlab K.Marks va F.Engels bir vaqtning o‘zida inson ehtiyojlarining fundamental ahamiyatini ishlab chiqdilar. Ular ishlab chiqarish orqali qondirladigan va rivojlanadigan, shuningdek, mehnat jarayonida yangi shakllangan kishilarning ehtiyojlari yana ularni qondira oladigan faoliyatga olib kelishini ko‘rsatadi, yani birinchi ehtiyoj qondiriladi, qondirish harakati va allaqachon sotib olingan vosita yangi ehtiyojlarni keltirib chiqaradi. K.Marks va F.Engels “moddiy hayotning u yoki bu tashkil etilishi, albatta, har safar rivojlangan ehtiyojlarga bog‘liq va bu ehtiyojlarning paydo bo‘lishi, ularni qondirishning tarixiy jarayonidir”-deb yozganlar. Bundan tashqari, K.Marks va F.Engels ehtiyojlar va jamiyatning moddiy faoliyati o‘rtasidagi munosabatlarning dialektik-ziddiyatli va tabiiy zaruriy xususiyatlari ham ta’kidlab o‘tganlar.

Ehtiyojlar va qadriyatlar bir biri bilan bog‘liq, lekin bir xil emas. Ular ijtimoiy fikr tarixida ijtimoiy harakatlarning bevosita sabablarini ko‘rsatish uchun ishlab chiqilgan, buning natijasida hayotning turli sohalarida o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Manfaatlarga aynalgan ehtiyojlar qadriyatlarga aynaladi. Ehtiyojlar va qadriyatlar o‘rtasidagi munosabatlar har xil turli shaxsiyatni keltirib chiqaradi. Motivatsiyada faqat eng zarur ehtiyojlar hukmron bo‘lgan odam erkin holda bo‘lmaydi. U tashqi sharoitlarning nazorati bilan harakat qiladi. Uning qadriyat munosabatiga aynalmagan ehtiyoji faqat unga qaramlikni yangi vositalarini olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Сизганова Е.Ю. Основы профориентологии, Орск, 2010.
2. Теплов Б.Г. Психология индивидуальных различий.
3. Xolmatov P.Q., O‘tayev A.Y., Xaydarov Sh.M., Jumayev F.A. O‘quvchilarning kasb tanlashga yo‘naltirish asoslari. Monografiya, Chirchiq.: “Zebo Prints”, 2024.
4. A.A.Mamadaliyev – Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish mexanizmlarini takomillashtirish, 2023-yil, 89-bet
5. Pavlov I.P. Полн.собр.соч. в 3-х тт. -М.: 1951. – С201
6. Гуревич К.М. Дифференциальная психология и психодиагностика. – Москва, 2008.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

7. Saidov B., Radjiyev A. va boshqalar, Kasbga yo‘naltirish: muammo va yechimlar. Uslubiy qo‘llanma. -Toshkent: A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish ilmiy-tadqiqot instituti, 2023.
8. Чудинова И.М. Теоретические основы теории индивидуальных потребностей. Красноярск, 1975.
9. Хейхаузен Х. Мотивация и деятельность (2 тома). Москва, 1986.
10. Маслоу А.Г. Мотивация и личность, Санкт-Петербург, 1999.
11. Mamadaliyev A.A. Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish mexanizmlarini takomillashtirish. International scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2023,
12. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. Darslik; – T: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent, 2008.
13. Abduraxmonov F.R., Abduraxmonova Z.E., Kasb psixologiyasi. - T: “Barkamol fayz media” nashriyoti. Toshkent, 2018.
14. Hayitov O.E., Umarova N.Sh. Kasbiy psixologiya. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Toshkent.

